

OMAD DOIM BILIMLILARGA KULIB BOQADI !!!

Farzandlarimiz bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va, albatta, baxtli bo`lishlari shart!

REPETITION TEST TOPSHIRUVCHILAR UCHUN



SAVOLLAR KITOBI

ABITURIYENT: _____

Abituriyent diqqatiga !

Test topshiriqlarini yechishdan avval savollar kitobini varaqlab, unda har bir fan bo'yicha 30 ta savol mavjudligini tekshiring. Agar savollar soni kamligi aniqlansa yoki savollar savollar kitobi raqami bilan javoblar varag'i raqami bir xil bo'lmasa, darhol auditoriya rahbariga ma'lum qiling.

Variant-2

FANLAR :

- Blok. Ona tili va adabiyoti
- Blok. Matematika (informatika)
- Blok. Kimyo

OMAD YOR BO'LSIN !!!

Navbatdagi test sinovi 24.06.2018 da bo'lib o'tadi

Telegram: @ilm_u_ziyo_ATM

Farzandlarimiz bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo`lishlari shart!

DIQQAT!
Qashqadaryoda ilk bor!

BOLALAR MAKTABI

1-sinf (rus tilida)
2-sinf (rus tilida)
1-sinf (o'zbek tilida)

Tel: +99891 227-87-66
+99891 953-34-94
+99897 313-99-00

Qarshi – 2018

51 kun qoldi

Ona tili va adabiyoti 2-variant

1. Yurtim, ko'nglingdek keng osmonlarning bor, Yulduzni yig'latgan dostonlarning bor. She'riy misralardagi fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlar haqidagi to'g'ri hukmni toping.

A)Tarkibida ochiq bo'g'in mavjud.

B)Fonetik yozuv asosida yozilgan so'zlarda til orqa undoshlari soni so'zda ishtirok etgan boshqa undoshlar soniga nisbatan ko'p

C)Urg'usi faqat oxirgi bo'g'inga tushgan so'zlar

D)Bir xil fonetik hodisa yuzaga chiqqan

2. Kipriklarim qo'ng'irmikin yo qora? Kipriklarim yuztamikin yoki ming? Mirtemir qalamiga mansub ushbu misralarda qanday ma'no ko'chish turi sodir bo'lgan?

A)metafora B)metonimiya

C) sinekdoxa D)metafora, metonimiya

3. Osmon hadsiz; ufqlar, qirlar jimirlaydi zarrin yog'duda. Osmon kabi tiniq tuyg'ular mavj uradi bu yosh ko'nglimda. Matnda ishtirok etgan yasama so'zlar tarkibida qatnashgan qo'shimchalar turi va sonini aniqlang.

A) 5 ta so'z yasovchi, 1 ta lug'aviy shakl yasovchi, 4 ta sintaktik shakl yasovchi

B) 5 ta so'z yasovchi, 1 ta lug'aviy shakl yasovchi, 3 ta sintaktik shakl yasovchi

C) 4 ta so'z yasovchi, 2 ta lug'aviy shakl yasovchi, 4 ta sintaktik shakl yasovchi

D) 4 ta so'z yasovchi, 2 ta lug'aviy shakl yasovchi, 2 ta sintaktik shakl yasovchi

4. Bo'ginga to'g'ri ajratilgan so'z qatorini toping.

A)diag-ramma B)fotog-rafiya

C)den-giz D)mal'-un

5. Nurali baxshi etagi tizzadan yuqori olacha to'n kiygan, boshida ko'k salla, og'zi to'la tilla tish. Matnda nechta turdosh ot ishtirok etgan?

A) 7 ta B) 8 ta C) 9 ta D) 10 ta

6. Faqat bir narsa Mo'minni qattiq xafa qilishi mumkin edi: birontasining ma'rakasini o'tkazish uchun qarindoshlar to'planadigan kengashga uni chaqirishni unutishsa... u qattiq ranjir va buni unutolmay azob chekardi. Gapda qatnashgan fe'llar qanday nisbatlardaligini toping.

A)6 ta aniq, 1 ta orttirma, 1 ta o'zlik, 1 ta birgalik

B) 5 ta aniq, 2 ta orttirma, 1 ta o'zlik, 1 ta birgalik

C) 4 ta aniq, 4 ta orttirma, 1 ta majhul, 1 ta birgalik

D) 3 ta aniq, 4 ta orttirma, 1 ta o'zlik, 1 ta birgalik

7. -Uh, bizga barra kabob topildi, huv ana, ertalabdan o'tlab turibdi,-debdi bo'rilar podshohi.

Gapda atash ma'nosiga ega bo'lmagan birliklar qaysi so'z turkumlariga tegishli?

A)olmosh, undov so'z

B)olmosh, undov so'z, fe'l

C) olmosh, undov, taqlid so'z

D) olmosh, undov, taqlid, fe'l

8. Tarkibida qatnashgan mustaqil so'zlar ichida ismlar guruhiga kirmaydigan bitta so'z ishtirok etgan gapni toping.

A)Hikmatni anglamoqning o'zi bir hikmat.

B)Kishini go'zal qilib turadigan uning chiroyi emas, balki chiroyli xulqidir.

C)Sabr shunday kuchli bir narsadirki, g'azabni shijoatga, shiddatni halimga, kattalikni tavozega, yomonlikni yaxshilikka aylantirmakka quvvati yetar.

D) Sen o'zingning eson-omonligingni tilasang, tilingdan zinhor yaramas so'zlarni chiqarma.

9. Ketmon oldim qo'lga men, Nodir esa belkurak. Endi bog'da kechgacha Rosa ishlasak kerak. She'riy parchada shaxsi ma'lum, ammo ifodalangan gapning tarkibidagi boshqaruvli so'z birikmasida tobe so'z qaysi so'z turkumi bilan ifodalangan?

A)olmosh bilan B) ot bilan

C) fe'l bilan D) ravish bilan

10. Insoniyat yaratilganidan buyon davom etib kelayotgan surunkali ofatlardan biri bu komil inson qadr-qimmatini vaqtida baholay olmaslik, qadriga yetmaslik, iliq nafasiga quloq tutmay, g'animat damlarni g'aflatda, razolat va jaholat iskanjasida o'tkazmoqlikdir. Ushbu matnda nomustaqil hol nech o'rinda qo'llangan?

A) 2 o'rinda B) 3o'rinda

C) 4 o'rinda D) 5 o'rinda

11. Angladimki, olamda Yurt tanho, Vatan tanho, Nokaslar emas, Yolg'iz sen baland, tanho. Ushbu gap haqidagi to'g'ri hukmni toping.

A) aralash murakkab qo'shma gap

B) qismlari uyushgan murakkab qo'shma gap

C) bir necha ergash gapli murakkab qo'shma gap D) bir necha bosh gapli murakkab q.g.

12. Siz uchqur buroqda uchyapsiz lekin, Men manzilga yayov boraman sekin. She'riy parchada asosi shakldoshlik xususiyatiga ega bo'lgan so'zlar qaysi vazifalarni bajarib kelgan?

A) aniqlovchi, hol B) aniqlovchi, kesim

C) hol, to'ldiruvchi D) faqat kesim

13. Tilingni avayla//omondir boshing, So'zingni avayla//uzayar yoshing. // belgisi o'rniga qaysi tinish belgisi ishlatiladi?

A)ikki nuqta B) vergul C)chiziqcha D)tire

14. Milliy mafkuramizning negizlaridan biri-tilga bo'lgan munosabatimizdir. Til-millat vakillarini birlashtiruvchi, tutib turuvchi belbog'. Ushbu nutq yozilgan uslubga xos bo'lgan xususiyatni belgilang.

A)obrazlilik, tasviriy ifoda vositalariga boylik xosdir
B)kishilar ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish
C)gap bo'laklarining joylashish tartibi ancha erkin bo'ladi
D)daliliy ma'lumotnomalar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga boy.

15. M.Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asarida aytilishicha, eng ochiq, ravon til qaysi til?

A)o'g'uz tili B)yag'mo C)tuxsi

D) Haqoniy o'lkasida yashovchilarning tili

16. Mashhur qora qashqa ayg'irning chilvirini xirmondagi bolalarga tutqazdi-da, dabdurustdan chollar bilan gaplashib turgan Komilaga yuzlandi. Mazkur gapda qatnashgan fe'llar haqidagi to'g'ri hukmlarni toping.

1)gapda 2 ta sof fe'l, 1 ta ravishdosh, 1 ta sifatdosh shaklidagi fe'l qatnashgan; 2)fe'llar gapda faqat kesim va aniqlovchi vazifasini bajarib kelgan; 3)3 ta fe'l asosi shakldoshlik xususiyatiga ega; 4)yuklama sof fe'lga qo'shimcha ma'no yuklagan.

A)2,3 B) 1,3 C)2,3,4 D) 1,2,3,4

17. Hijroning qalbidam, sozing qo'limda, Hayotni kuylayman, chekinar alam.

Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham!

She'riy misralarda egasi mavjud gaplar nechta?

A) 4 ta B) 5 ta C) 6 ta D) 7 ta

18. Qani men kelganda kulib, qarshilab,

Qo'shig'i mavjlanib bir daryo oqqan?

"Baxtim bormi deya, yakkash so'roqlab"

Meni she'rga o'rab suqlanib boqqan?

She'riy misralarda fonetik o'zgarishlar necha o'rinda, qaysi turkumga oid so'zlarda uchraydi?

A)6 ta; ot, olmosh B) 4 ta; ot, olmosh, fe'l

C)6 ta; ot, olmosh, fe'l D)5 ta; olmosh, ot, fe'l

19. Anorda bor, Qanorda bor, Fonusda yo'q, Fanorda bor. She'riy topishmoqda quyi tor unlilar necha so'zda qatnashmagan?

A)1 ta B)2 ta C)3 ta D)4 ta

20. Mitraning izlaridan Borar G'azabnok qobon misol, Serjahl, o'tkir tishli. Nuqtalar o'rnini to'ldiring.

A) Ashi va Rashnu B) ma'bud Varaxran

C) Ashi va Arta D) ma'bud Raman

21. Jaratti jashil jash, Savurdi o'rung qash, Tizildi qara qush, Tun, kun uza yurkanur. "Devoni lug'otit-turk" asaridan olingan ushbu parchada muallif nimani ta'riflaydi?

A) bahorni B) o'yin-kulgini

C) sevgilisini D) osmonni

22. "Sab'ayi sayyor" dostonida 6-iqlim yo'lidan kelgan musofir qanday hikoyat aytib beradi?

A)Muqbil va Mudbir haqida

B)Sa'd haqida

C)Mehr va Suhayl haqida

D)Farrux va Axiy haqida

23. Qaysi ijodkor o'z zamonida e'tirof etilgan shayx lavozimida faoliyat ko'rsatgan, ko'plab g'azal, ruboiy va qit'alar yaratgan?

A)Navoiy B) Hoja C)Rudakiy D)Rumi

24. Yurt kelajagini o'ylab, uning "ziynatafzo", "jannatoso", "tufrog'i anbar, suvi gulob" bo'lishini orzu qilgan shoir kim?

A)Furqat B) Muqimiy C)Nodira D)Zavqiy

25. "Advokatlik osonmi?" pyesasida advokat Davronbek arzgo'ylarning qaysi birining mahallasi yaqinida yashar edi?

A)Egamberdi B) Mehriniso

C)Rapoil D)Xudoyberdi

26. Zulfiyaning "O'g'lim, sira bo'lmaydi urush" she'rida shoira qachon sira urush bo'lmasligini aytadi?

A)onalar duoga qo'l ochganda

B)shukronalik tuyg'usi bilan yashaganda

C)ona qalbi oyoqqa turganda

D)xalqlar birlashganda

27. Jek Londonning eng yaxshi romanlaridan biri deb hisoblangan romani...

A)"Temir tovon" B)"Martin Iden"

C)"Oq sukunat" D)"Tubanlik kishilari"

28. "Ko'zda tabassum-u kiprikda titroq", "sendanda kumushroq sochimdagi oq" ifodalari qaysi shoir ijodida uchraydi?

A)M.Yusuf B)A.Oripov

C)Zulfiya D)S.Zunnunova

29. Tasavvuf adabiyotida vasl sarxushligi, ya'ni mastligini ifoda etuvchi adabiy istiloh...

A)boda B)Jomi Jam C)ko'ngil D)qadah

30. So‘roq-buyruq gapni toping.
 A) Maqsad nima, maqsad?!
 B) Boshimni qashlab, hayrat barmog‘imni tishlab, damim ichimda, indamaygina izimga qaytaymi?
 C) To‘lovni tezroq to‘lab, chetroqqa o‘tmaysanmi endi?
 D) Suvni uzatib yubor? O‘zing-chi?

Tuzuvchi: Gulnoza Hamidova

Taklif va e‘tirozlar uchun: +998915695659

Matematika (informatika) 2-variant

31. Quyidagi mulohazalardan nechitasi noto‘g‘ri?
 1) noto‘g‘ri kasrni surati va maxraji bir songa kamaysa kasrning qiymati ortadi; 2) har qanday songa teskari son mavjud; 3) har qanday musbat sonning kvadrati o‘zidan katta; 4) bir nechta toq sonlar yig‘indisi har doim juft son bo‘ladi.

- A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

32. Barcha ikki xonali sonlar yig‘indisining natural bo‘luvchilari nechta?

- A) 12 B) 16 C) 24 D) 4905

33. Piramidaning asosi 6 va o‘tkir burchagi 30° bo‘lgan rombdan iborat. Piramidaga asos yasovchi tekisligi bilan 60° burchak ostida og‘gan ichki konus chizilgan. Konusning hajmini toping.

- A) $\frac{7\sqrt{3}\pi}{4}$ B) $\frac{9\sqrt{3}\pi}{4}$ C) $\frac{7\sqrt{3}\pi}{8}$

34. m ning qanday qiymatida $\begin{cases} 2x - 3y = 6 - m \\ x + 2y = m + 2 \end{cases}$

tenglamalar sistemasining absissasi manfiy, ordinatasi musbat bo‘ladi?

- A) $\left(\frac{2}{3}; +\infty\right)$ B) \emptyset C) $(-18; -10)$ D) $(-\infty; -18)$

35. Saidning test ishlashi uchun ketadigan vaqt 40% kamayishi uchun u mehnat unumdorligini necha foizga orttirishi kerak?

- A) 100/3 B) 40 C) 200/3 D) 60

36. $x^2 + y^2 + |z - 2xy| - 2x + 4y - 5$ ifoda eng kichik qiymatga erishganda, xyz ni hisoblang.

- A) 8 B) 10 C) -8 D) -10

37. $\frac{a+x}{\sqrt[3]{a^2 - \sqrt[3]{x^2}}} + \frac{\sqrt[3]{ax^2} - \sqrt[3]{a^2x}}{\sqrt[6]{a} - \sqrt[6]{x}}$ soddalashtiring.

- A) $\sqrt[6]{a}$ B) $\sqrt[6]{x}$ C) 1 D) \sqrt{a}

38. k ning qanday qiymatlarida $x^2 + 6x + a + 1,5 = 0$ tenglama ikkala ildizi manfiy bo‘ladi?

- A) $(-\infty; -1,5)$ B) $(-1,5; 7,5)$ C) $(0; 7,5)$ D) $\mathbb{K} \setminus \emptyset$

39. $||x| - 4| = 4 - |x|$ tenglamaning ildizlari ko‘paytmasini toping.

- A) 2 B) -1 C) 0 D) 1

40. $\sqrt{x+6} > x$ tengsizlikni butun yechimlari nechta?

- A) 7 B) 8 C) 9 D) 6

41. Osiyo maktabgacha ketish uchun uydan chiqdi, u yo‘lning $\frac{5}{12}$ qismini bosib o‘tganda kitobini unutganligini tushundi, u maktabga o‘z vaqtida yetib kelishi uchun dastlabki tezligini necha marta oshirishi kerak?

- A) $\frac{14}{7}$ B) $\frac{12}{7}$ C) $\frac{11}{7}$ D) $\frac{17}{7}$

42. $S_n = 3n^2 - 2n - 1$ formula bilan burilgan ketma-ketlikda $a_{10} + a_9$ ni toping.

- A) 119 B) 503 C) 104 D) 224

43. $y = \frac{4^{x+1} + 8}{2^{2x+4} - 12}$ funksiyaning qiymatlar sohasini toping.

- A) $\left(-\infty; \frac{1}{4}\right) \cup (1; +\infty)$ B) $\left(-\infty; -\frac{2}{3}\right) \cup \left(\frac{1}{4}; +\infty\right)$
 C) $(-\infty; 1) \cup (1; +\infty)$ D) $(-\infty; 1)$

44. Tenglama ildizlarining yig‘indisini toping.

$$\sqrt[3]{2} \log_2 \sqrt[3]{-x} + \log_{\frac{1}{8}} \sqrt{x^2} = 0$$

- A) 0 B) -65 C) -63 D) -1

45. $A \{x \in \mathbb{N}, x^2 - 4 < 0\}$,

$B \{x \in \mathbb{Z}, x^2 - 3x - 10 \leq 0\}$ to‘plamlar birlashmasini toping.

- A) $(-2; 2) \cup (2; 5]$ B) $[-2; 5]$
 C) $[-2; 5)$ D) $(-2; 2)$

46. $a = -4i + \sqrt{5}$ kompleks sonni radius vektori qaysi chorakda yotadi?

- A) I B) II C) III D) IV

47. Uchlari $A(-2; 3), B(4; 4), C(6; -7)$ va $D(-3; -5)$ nuqtalarda bo‘lgan turtburchakning yuzasini toping.

- A) 84 B) 71 C) 64 D) 47

48. Ifodani soddalashtiring.

$$\frac{2\sqrt{2} \cos 7^\circ + \sqrt{2} \sin 83^\circ}{\cos 52^\circ + \sin 52^\circ}$$

- A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

49. $\frac{\sin 30\pi x - 5 \sin 10\pi x}{\sin 41^\circ - \cos 41^\circ} \geq 0$ tengsizlikni yeching.

A) $\left[\frac{k}{5}; \frac{1}{10} + \frac{k}{5}\right]$ B) $\left[-\frac{1}{10} + \frac{k}{5}; \frac{k}{5}\right]$

C) $\left(-\frac{1}{10} + \frac{k}{5}; \frac{k}{5}\right)$ D) $\left(-\frac{1}{10} + \frac{k}{5}; \frac{k}{5}\right)$

50. Qaysi nuqta $y=x^3-2x^2+3x-2$ teskari funksiyaga tegishli?

- A) (0; -2) B) (-8; -1) C) (-1; -8) D) (2; 10)

51. Turtta tanga bir vaqtda tashlanganda kamida uchtasining gerb tomoni bilan tushish ehtimolini toping.

- A) 0,125 B) 0,4 C) 0,625 D) 0,(3)

52. $\int_1^2 f(x) \cdot f'(x) dx = 0$ bo'lsa, quyidagilardan qaysi

biri to'g'ri?

- A) $f(1)=f(2)$ B) $f(1)=-f(2)$
 C) $f'(1)=-f'(2)$ D) $f'(a)=f'(b)$

53. Soat 15^{15} dan 18^{20} ga to'g'rilandi. Minut va soat strelkalari orasidagi burchak necha gradusga o'zgargan?

- A) $47,25^0$ B) $31,25^0$ C) $62,5^0$ D) $97,5^0$

54. Uchburchak yon tomonining uchidan boshlab hisoblanganda 2:3:4:5 nisbatda bo'linadi va bo'linish nuqtalari orqali asosga parallel to'g'ri chiziqlar o'tkazildi. Hosil bo'lgan figuralar mos yuzalari nisbatini toping.

- A) 4:21:56:115 B) 4:21:36:81
 C) 5:12:56:115 D) 5:12:36:81

55. ABCD qavariq to'rtburchak diagonallari perpendikulyar hamda tomonlari $AB = \sqrt{21}$, $BC=15$, $CD=20$ bo'lsa, AD ni toping.

- A) 10 B) 12
 C) 14 D) aniqlab bo'lmaydi

56. $9AB_{32}=X_8$

- A) 115262 B) 11245542
 C) 1124542 D) 6742062

57. $X^2-111_5X+1034_6=0$ kvadrat tenglama ildizlaridan ikkita ortiq ildizga ega bo'lgan kvadrat tenglama tuzing.

- A) $X^2-43_8X+450_8=0$
 B) $X^2-24_{16}X+100110000_2=0$
 C) $X_2-100011_2X+460_8=0$
 D) $X^2-23_{16}X+130_{16}=0$

58. Eof(f) funksiyasini vazifasi

- A) faylda o'qish uchun ma'lumot qolmagan bo'lsa rost qiymat qabul qiladi
 B) faylda o'qish uchun ma'lumot qolmagan bo'lsa yolg'on qiymat qabul qiladi
 C) diskdagi fayllarni o'qish uchun ochadi

D) diskda ma'lumot yozish uchun fayl ochadi
 59. Лист1 dagi B6:C9 maydon sonlarining eng kichik qiymatini Лист2 da hosil qilish uchun quyidagilardan qaysi biri bajariladi?

- A) =МИН(Лист1'В6:С9');
 B) =МИН(Лист1! "В6:С9");
 C) =МИН(Лист1! В6:С9);
 D) =МИН(Лист2! В6:С9);

60. Takrorlanishlar sonini aniqlang $I:=1999$; while $i>2018$ do $i:=i+1$;

- A) 0 B) 20 C) 17 D) 19

Tuzuvchilar: Matematika – Javlon Amirov

Taklif va e'tirozlar uchun: +998916395551

Informatika – Alisher Ochilov

Taklif va e'tirozlar uchun: +998972220595

Kimyo 2-variant

61. Qaysi qator karrali nisbatlar qonuni bo'yicha to'g'ri tartibda yozilgan?

- 1) NO_2 ; 2) N_2O ; 3) N_2O_5 ; 4) N_2O_3 ; 5) NO
 A) 1,2,3,4,5 B) 5,3,4,1,2
 C) 2,5,4,1,3 D) 3,1,4,2,5

62. 11g Na va Li bo'lgan idish ochiq havoda qoldirildi. Ma'lum vaqtdan keyin idish massasi 19g bo'lib qoldi. Idishga mo'l miqdor HCl eritmasi qo'shilganda 1,4 l (n.sh.da) gaz ajraldi va tarkibida metal bo'lmagan 10,7 g tuz hosil bo'lgan bo'lsa, dastlabki metallarning elektronlar yig'indisini toping.

- A) 6 B) 5 C) 8 D) 7

63. Ishqoriy metal gidridi 45,6 g suvda eritilganda 16% li eritma olinib $1/5$ mol gaz ajralgan bo'lsa, $Me=?$

- A) Li B) K C) Na D) Cs

64. NH_3 ning parchalanish reaksiyasida boshlang'ich va oxirgi gazlarning zichliklari nisbati 7:5 bo'lib qolgan bo'lsa, NH_3 ning necha foiz qismi parchalangan?

- A) 20 B) 60 C) 75 D) 40

65. $E_2(SO_4)_3$ tarkibdagi E va S ning elektronlar soni nisbati 1,5333:1 ga teng bo'lsa, E metallni kim kashf qilgan?

- A) qadimdan ma'lum B) Ersted
 C) Devi D) Vokelin

66. $H_2+J_2 \rightarrow 2HJ$. Shu sistemada J_2 ning 90% qismi sarflangach muvozanat konstantasi 36 ga teng bo'lgan bo'lsa dastlabki moddalarning mol nisbatini toping.

- A) 1,8:1 B) 1:0,9 C) 2:1 D) 1,6:1
67. NO₂ suvda eritilganda qanday mahsulot(lar) olinadi?
 A) HNO₂ B) HNO₃ C) NH₃+H₂O D) A va B
68. A+B→C sistemada A moddaning konsentratsiyasi 2 marta kamayishi uchun ma'lum vaqt sarflandi. Shu modda konsentratsiyasi 4 marta kamayishi uchun ketgan vaqt 2 marta kamayishi uchun ketgan vaqtdan 10 sekundga ko'p bo'lsa, A moddaning konsentratsiyasi 8 marta kamayishi uchun qancha vaqt sarflanadi?
 A) 40 B) 35 C) 30 D) 25
69. Au, Pt, Mo, W kabi qimmatbaho metallarni chiqindilardan ajratib olish uchun texnologiyasini ishlab chiqqan va amaliyotga joriy etgan olimni aniqlang.
 A) K.X.Roziqov B) Sh.I.Solihov
 C) X.T.Sharipov D) H.U.Usmonov
70. Toq elektronlari soni eng ko'p metal(lar)?
 A) Mn B) Cr
 C) Fe D) Mn va Cr
71. Konsentrlangan Na₂CO₃ ga Al ta'sir ettirilganda hosil bo'lgan tuzning massasini toping. (Reaksiyada Na₂CO₃ 1 mol Al esa yetarli miqdorda)
 A) 62 B) 106 C) 164 D) 234
72. Alken va H₂ aralashmasi (gazlar teng miqdorda) Pt katalizatori orqali ta'sirlashganda (unum=80%) hosil bo'lgan aralashmadagi sp³ va sp² orbitalar nisbati 8,6667 bo'lsa, dastlabki gazlar aralashmasining o'rtacha molekulyar massasini toping.
 A) 29 B) 36 C) 43 D) 22
73. 50,8 g noma'lum I va II valentli metal aralashmasining 0,8 moli suvda eritilganda 11,2 l (n.sh) gaz ajralib chiqdi. Agar hosil bo'lgan XO₂ning massasi Y(OH)₂ nikidan 0,6 g ga kam bo'lsa, noma'lum metallarni aniqlang.
 A) Li, La B) K, Ba C) Na, Ba D) K, Ca
74. 10 l NO₂ va NO aralashmasiga 5 l havo qo'shilgandan so'ng olingan gazlar aralashmasining hajmi 13 l ni tashkil qilsa, dastlabki aralashmadagi gazlarning atom nisbatini aniqlang.
 A) 1,5 B) 2,5 C) 2,25 D) 1,75
75. Fenolftalinning eritmadagi pushti rangini rangsizlantirish uchun qanaqa moddalar qo'shish kerak?
 1) AlCl₃; 2) Na₂CO₃; 3) LnSO₄; 4) Cu(NO₃)₂; 5) Ca(NO₂); 6) KCN
 A) 2,5,6 B) 1,3,4 C) 2,3,5 D) 1,4,6

76. FeSO₄+HNO₃(suy)→ Ushbu reaksiyani tugallab yozing va koeffitsiyentlar yig'indisini toping.
 A) 10 B) 29 C) 5 D) 12
77. 6 l (n.sh.da) O₂→O₃ ga aylansa, hajm necha marta kamayadi?
 A) 1,5 B) 2 C) 0,75 D) 3
78. 1875-yil Ozon kim tomonidan kashf qilingan?
 A) Shyonbeyn B) M.Van Marum
 C) Sheele D) Lavuazye
79. Tuzi tarkibida vodorodning massa ulushi $\frac{1,25}{24}$ bo'lgan va NOH eritmasi bilan tuz va alkan hosil qiladigan moddadan 9 g alkan olish uchun sarflangan 40%li ishqor eritmasining massasini toping.
 A) 30 B) 35 C) 40 D) 80
80. Tarkibida oltingugurt bo'lmagan oqsilni toping.
 A) prolaminlar B) protaminlar
 C) gistoinlar D) skleroproteinlar
81. Alkan tetrahlorganda hosil bo'lgan mahsulotlarning o'rtacha molekulyar massasi dastlabki alkanning molyar massasidan 1,491 marta katta bo'lsa, alkan tarkibidagi sp³ orbitalar sonini toping.
 A) 12 B) 8 C) 4 D) 16
82. 60°C dagi tezligi 2mol/l minut bo'lgan reaksiyani 40°C da 1,5 mol/l konsentratsiyasining 3 marta kamayishi uchun ketadigan vaqtni (sekund)da toping.
 A) 2 B) 3 C) 120 D) 180
83. 50°C da erituvchining massasi erigan tuz massasidan 4 marta katta 100°C da esa umumiy eritma massasi tuz massasidan 2 marta katta bo'lsa, ikki eritmaning foiz konsentratsiyalari ayirmasi nechaga teng?
 A) 30 B) 20 C) 40 D) 15
84. 86,85 g FeCl₂ ga (n.sh.) necha l Cl₂ ta'sir ettirilganda m FeCl₂=FeCl₃ bo'ladi?
 A) 33,6 B) 11,2 C) 3,36 D) 2,24
85. C₂H₆ → C₂H₅Cl → C₄H₁₀ reaksiya uchun 45 g etan olingan. Hosil bo'lgan yakuniy mahsulot massasi dastlabki modda massasidan 24,12 g ga farq qilsa reaksiyadagi unumlar ayirmasini toping. birinchi reaksiya unumi ikkinchisidan $\frac{4}{3}$ marta katta?
 A) 20 B) 10 C) 15 D) 25
86. 19,92 g KJ eritmasidan cho'kma tushguncha kislorodga nisbatan zichligi 0,925 g/mol bo'lgan O₃ va H₂ aralashmasidan necha g o'tkazish kerak?
 A) 1,48 B) 4,44 C) 2,96 D) 5,92

87. 0,28 mol HgCl_2 eritmasi elektrolarda chiqadigan mahsulotlar tenglashguncha elektroliz qilindi.

Elektrolizdan so'ng idishda H_2O qolmasligi uchun 89,6 g SO_3 yuttirilgan bo'lsa dastlabki eritmadagi tuzning mol ulushini toping.

A) 14% B) 7% C) 10% D) 5%

88. NaNO_2 gidrolizini kuchaytirish uchun quyidagilarning qaysilari to'g'ri emas?

1) isitish; 2) suyultirish; 3) ishqor qo'shish; 4) kislota qo'shish; 5) suvni bug'latish; 6) temperaturani pasaytirish

A) 3,5 B) 1,3,6 C) 1,2,4 D) 4,5,6

89. Amfoter bo'lgan birikmalarni toping.

A) Zn, Be, Al

B) Fe_2O_3 , Cr_2O_3 , MnO_2

C) Fe_2O_3 , CrO_3 , Mn_2O_3

D) BeO, NaO, Al_2O_3

90. 200 g X% li H_2SO_4 eritmasiga 0,5 mol H_2 va CO aralashmasi orqali oksidi tarkibidan ajratib olingan Cu ta'sir ettirilganda eritma turgan idish massasi o'zgarmagan bo'lsa X ni toping.

A) 58,8% B) 19,6% C) 9,8% D) 49%

Tuzuvchi: Jamila Yuldosheva

Taklif va e'tirozlar uchun: +99890 666 97 55

Farzandlarimiz, bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo`lishlari shart !



DIQQAT!

Qashqadaryoda ilk bor!

BOLALAR MAKTABI



1-sinf (rus tilida)
2-sinf (rus tilida)
1-sinf (o'zbek tilida)

Tel: +99891 227-87-66
+99891 953-34-94
+99897 313-99-00



KUN TARTIBI:

Har bir sinfda 22 nafar o'quvchi (Shundan 2 nafari kam ta'minlangan yoki boquvchisini yo'qotgan o'quvchi, maktab xomiyligi ostida) o'qiydi.

1-soat. 8:00 kirish 8:40 chiqish

2-soat. 8:45 kirish 9:25 chiqish

3-soat. 9:30 kirish 10:10 chiqish

4-soat. 10:15 kirish 11:05 chiqish

Ovqatlanish: 11:10 dan 11:30 gacha

5-soat. 11:35 kirish 12:15 chiqish

6-soat. 12:20 kirish 13:00 chiqish

Dam olish soati: 13:00 dan 14:40 gacha

Ovqatlanish: 14:40 dan 15:00 gacha

15:00 dan 17:00 gacha kun davomida o'tilgan darslarni mustahkamlash soati (uyga vazifalar tarbiyachilar nazorati ostida bajartiriladi).

Xaftada 2 kun xar bir bolani qiziqishiga qarab sport to'garaklariga (kurash, dzyudo, futbol, yengil atletika, suzish) olib borib, uylariga yetkazib qo'yiladi.

Maktabda shaxmat to'garagi majburiy tartibda olib boriladi.

Sinf xonasi zamonaviy jixozlanib, ovozli video kuzatuv asosida ota-onalar online tarzda farzandlarini kuzatib turadilar.

1 oyda 1 marta teatrqa olib boriladi.

17:00 dan 18:00 gacha uyga kuzatish.

8,1,6,3
2,7,4,5

10.06.2018